


**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va
yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning
ustivor yo‘nalishlari”
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2024-yil 20-21 dekabr

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	
Matrasulov Bahodir Erbutayevich.....	1064
QISHLOQ XO‘JALIGINI MOLIYALASHTIRISH VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
Maxamadiyev Turg'unbay Jumabayevich.....	1066
MILLIY IQTISODIYOTDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li.....	1070

MILLIY IQTISODIYOTDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xojiyev Ma’murjon Muxsinjon o‘g‘li

Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyotda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. 2010–2025-yillar ma'lumotlari asosida ko‘p omilli log-log regressiya modeli qurilib, imtiyozli kreditlar, yoshlar ishsizligi, kichik biznesning YaIMdagi ulushi va raqamli infratuzilmaning yoshlar tadbirkorligi rivojlanishiga ta'siri miqdoriy baholangan. Tadqiqot natijasida davlat qo‘llab-quvvatlashini natijadorlikka yo‘naltiruvchi adaptiv tashkiliy-iqtisodiy mexanizm hamda YSASI integral indeksi taklif etilgan va 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tadbirkorligi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, adaptiv mexanizm, YSASI, PDCA sikli, raqamli platforma, log-log model, prognoz.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bandlikni ta'minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsion o‘sishga erishishning muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni yangi ish o‘rinlari yaratilish sur'atidan tezroq oshib bormoqda, Jahon banki hisobotlariga ko‘ra esa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yoshlar ishsizligi darajasi o‘rtacha 13–20 foiz oralig‘ida saqlanib qolmoqda. Bu holat yoshlar bandligini ta'minlashning an'anaviy mexanizmlari yetarli emasligini va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish orqali muqobil bandlik shakllarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda 30 yoshgacha bo‘lgan aholi umumiy aholining qariyb 60 foizini tashkil etadi. Bu demografik salohiyat, bir tomondan, iqtisodiy o‘sishning asosiy resursi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yoshlarni ish bilan ta'minlash bo‘yicha jiddiy vazifani yuzaga keltiradi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PF-61-son Farmoni hamda 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son qarori doirasida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning keng ko‘lamli tizimi shakllantirildi. Shu bilan birga, amaldagi qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini baholash, asosan, ajratilgan mablag‘lar hajmi va moliyalashtirilgan loyihalar soni bilan cheklanib, moliyalashtirilgan biznes subyektlarining keyingi yillardagi yashovchanligi, yaratilgan ish o‘rinlarining barqarorligi va byudjet tushumlariga qo‘shgan hissasi tizimli tarzda kuzatilmaydi. Aynan shu ilmiy-amaliy bo‘shliq mazkur tadqiqotning zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy taqqoslama tahlil, monografik yondashuv, statistik tahlil, so‘rovnoma o‘tkazish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanilgan. Yoshlar tadbirkorligi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholash maqsadida 2010–2025-yillarni qamrab oluvchi 16 ta yillik kuzatuv asosida STATA dasturida ko‘p omilli regressiya modeli qurilgan. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida yoshlar tadbirkorligi subyektlari soni (Y, ming birlik) olingan bo‘lsa, mustaqil

o‘zgaruvchilar sifatida imtiyozli kreditlar hajmi (X1, mlrd so‘m), yoshlar ishsizlik darajasi (X2, foiz), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi (X3, foiz) hamda internet foydalanuvchilari soni (X4, 100 kishiga) kiritilgan.

O‘zgaruvchilar orasidagi keng ko‘lamli qiymat farqini yumshatish, koeffitsiyentlarni bevosita elastiklik sifatida talqin qilish va geteroskedastiklik xavfini kamaytirish maqsadida barcha o‘zgaruvchilar tabiiy logarifm shaklida ifodalangan. Natijada model quyidagi log-log ko‘rinishni kasb etadi:

$$\ln(Y) = \beta_0 + \beta_1 \cdot \ln(X1) + \beta_2 \cdot \ln(X2) + \beta_3 \cdot \ln(X3) + \beta_4 \cdot \ln(X4) + \varepsilon$$

Tahlil va natijalar. Baholangan model yuqori statistik sifat ko‘rsatkichlarini namoyon etdi: F-statistika 171,25 ($p = 0,0000$), determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,9842$, tuzatilgan $R^2 = 0,9784$, Root MSE = 0,07195. Ya’ni tanlangan to‘rtta omil birgalikda yoshlar tadbirkorligi subyektlari sonidagi umumiy o‘zgarishning 98,4 foizini tushuntira oladi. Breusch–Pagan testi natijalari ($\chi^2 = 0,36$; $p = 0,986$) qoldiqlarda geteroskedastiklik mavjud emasligini tasdiqladi. Baholangan tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln(Y) = 2,8539 + 0,2911 \cdot \ln(X1) - 0,7326 \cdot \ln(X2) + 0,4050 \cdot \ln(X3) + 0,2308 \cdot \ln(X4)$$

1-jadval

Log-log regressiya modeli koeffitsiyentlari va ularning iqtisodiy talqini²⁰⁹

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	p-qiymat	Iqtisodiy talqin
$\ln(X1)$ – imtiyozli kreditlar	0,2911	0,065	Kreditlar hajmi 1% oshganda tadbirkorlik subyektlari soni 0,29% oshadi
$\ln(X2)$ – yoshlar ishsizligi	–0,7326	0,021	Ishsizlik 1% oshganda subyektlar soni 0,73% kamayadi (eng kuchli omil)
$\ln(X3)$ – KBning YaIMdagi ulushi	0,4050	0,488	Institutsional muhitning bilvosita, umumiy ekotizim orqali ta'siri
$\ln(X4)$ – internet foydalanuvchilari	0,2308	—	Raqamli infratuzilma 1% kengayganda subyektlar soni 0,23% oshadi

Olingan natijalar bir necha muhim iqtisodiy xulosani beradi. Birinchidan, yoshlar ishsizlik darajasi eng katta elastiklikka ega omil bo‘lib chiqdi: mehnat bozoridagi barqarorlik yoshlar tadbirkorligi uchun moliyaviy resurslardan ham kuchliroq ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, imtiyozli kreditlarning musbat va statistik jihatdan ahamiyatga yaqin koeffitsiyenti moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmining samarali ekanligini tasdiqlaydi. Uchinchidan, raqamli infratuzilmaning musbat ta'siri yoshlar tadbirkorligini raqamli platformalar orqali qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishini kengaytirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

²⁰⁹ Stata 17 dasturida tayyorlangan.

Hududlar kesimida o‘tkazilgan tahlillar yoshlar tadbirkorligi salohiyatining sezilarli differensiallashganini ko‘rsatdi. Yoshlar soni yuqori bo‘lgan ayrim hududlarda tadbirkorlik faolligi nisbatan past darajada shakllangan bo‘lsa, iqtisodiy infratuzilmasi rivojlangan hududlarda ko‘rsatkichlar yuqoriroq. Bu holat qo‘llab-quvvatlash siyosatini hududlarning rivojlanish darajasidan kelib chiqib differensial tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Taklif etilayotgan mexanizm. Tadqiqot natijalari asosida yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning natijaga yo‘naltirilgan adaptiv tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi. Mexanizm davlat qo‘llab-quvvatlashini moliyaviy instrumentlar majmui sifatida emas, balki diagnostika, differensial qo‘llab-quvvatlash, raqamli monitoring, kompleks baholash, adaptiv boshqaruv va qayta aloqa bosqichlarini birlashtiruvchi uzluksiz boshqaruv sikli sifatida talqin qiladi. Mexanizm PDCA (Plan–Do–Check–Act) tamoyiliga asoslangan bo‘lib, 7 bosqichdan iborat.

Qo‘llab-quvvatlash samaradorligini miqdoriy o‘lchash uchun YSASI (Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash samaradorligining adaptiv indeksi) integral indeksi taklif etildi. Indeks $I = \sum(W_i \cdot X_i)$ formulasi asosida hisoblanadi, bunda X_i – min-max usulida [0;1] oralig‘iga keltirilgan indikator qiymati, W_i – uning vazn koeffitsiyenti. YSASIning adaptivligi shundaki, vazn koeffitsiyentlari PDCA siklining har bir iteratsiyasida qayta aloqa ma’lumotlari asosida qayta ko‘rib chiqiladi. Sohaning obyektiv holatini baholash uchun esa YTRI (Yoshlar tadbirkorligi rivojlanish indeksi) qo‘llaniladi.

Institutsional darajada davlat, biznes va ta’lim institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni yagona raqamli platformada integratsiyalovchi "3M-Platforma" va "Smart Youth Business Ecosystem" modellari taklif etildi. Modelda biznes loyihalar sun'iy intellektga asoslangan skoring orqali baholanadi va har bir subyektga uning rivojlanish bosqichiga mos qo‘llab-quvvatlash instrumenti – grant, imtiyozli kredit, mentorlik yoki akselerator dasturi – tanlanadi, natijalar esa real vaqt rejimida kuzatib boriladi.

2-jadval

Yoshlar tadbirkorligi asosiy ko‘rsatkichlari prognozi²¹⁰

Yil	Y – subyektlar (ming)	X1 – kreditlar (mlrd so‘m)	X2 – ishsizlik (%)	X3 – KB ulushi (%)	X4 – internet (100 ga)
2026	1 141,2	43 462	9,2	49,3	128,3
2027	1 266,6	54 320	8,9	48,3	143,6
2028	1 406,4	67 892	8,6	47,3	160,8
2029	1 562,5	84 854	8,3	46,2	180,0
2030	1 736,8	106 054	8,1	45,2	201,5

²¹⁰ Iqtisodiy-matematik model asosida shakllantirilgan

Prognoz natijalariga ko‘ra, yoshlar tadbirkorligi subyektlari soni 2026-yildagi 1 141,2 ming birlikdan 2030-yilga borib 1 736,8 ming birlikka yetishi, ya’ni yillik o‘sish sur’ati 10–12 foiz oralig‘ida barqaror saqlanishi kutilmoqda. Imtiyozli kreditlar hajmi shu davrda 43 462 mlrd so‘mdan 106 054 mlrd so‘mga ortadi, yoshlar ishsizlik darajasi esa 9,2 foizdan 8,1 foizga izchil pasayadi. Kichik biznesning YaIMdagi ulushining 49,3 foizdan 45,2 foizga qisqarishi iqtisodiyot tarkibining yirik va o‘rta korxonalar hisobiga diversifikatsiyalanishi bilan izohlanadi va yoshlar tadbirkorligi salohiyatining pasayishini anglatmaydi.

Xulosa va takliflar. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1. Ekonometrik tahlil yoshlar ishsizlik darajasi yoshlar tadbirkorligi rivojlanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil ekanligini ko‘rsatdi (elastiklik $-0,73$). Shu bois yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash siyosati mehnat bozori siyosati bilan uzviy bog‘lab olib borilishi lozim.

2. Davlat qo‘llab-quvvatlash tizimini "resursga yo‘naltirilgan" baholashdan "natijadorlikka yo‘naltirilgan" adaptiv baholashga o‘tkazish, buning uchun YSASI integral indeksini rasmiy monitoring ko‘rsatkichi sifatida joriy etish taklif etiladi.

3. Qo‘llab-quvvatlash dasturlarini hududlarning demografik salohiyati, iqtisodiy infratuzilmasi va institutsional sharoitlaridan kelib chiqib differensial tashkil etish maqsadga muvofiq.

4. Moliyaviy, institutsional va raqamli qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini "Smart Youth Business Ecosystem" doirasida yagona raqamli platformada integratsiyalash, biznes loyihalarni sun’iy intellekt asosida baholash va real vaqt monitoringini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

5. Taklif etilgan mexanizmlarning joriy etilishi 2026–2030-yillarda yoshlar tadbirkorligi subyektlari sonining barqaror o‘sishi, yoshlar ishsizligining pasayishi hamda davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligining oshishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-61-son Farmoni. – www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-60-son qarori. – www.lex.uz

3. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.

4. Acs Z.J., Autio E., Szerb L. National Systems of Entrepreneurship: Measurement Issues and Policy Implications // Research Policy. – 2014. – Vol. 43. – No. 3. – P. 476–494.

5. Shane S., Venkataraman S. The Promise of Entrepreneurship as a Field of Research // Academy of Management Review. – 2000. – Vol. 25. – No. 1. – P. 217–226.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – www.stat.uz